

INSON QADRI

*Odiljonova Shahlo Dilmurod qizi**Oriental Universiteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi*

Antonatsiya: Ushbu maqola inson qadrini ulug'lash va bugungi kunda mamlakatimizda inson qadri uchun olib borilayotgan turli xil islohotlar va ularning samaralari haqida ma'lumotlar keltirib o'tildi.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, Inson qadri, Harakatlar strategiyasi, Taraqqiyot strategiyasi, "Inson qadri uchun" tamoyili, qonun, farmon, qadriyat, tarbiya.

Inson qadri – odam zotining Allohning eng buyuk mo'jizasi sifatida ulug'lanishi, har tomonlama munosib qadr-qimmat topishini anglatadigan tushuncha. Inson uchun qadriyatlar mezonini anglashda dastlab oila muhiti, ota-ona, qarindosh-urug', o'qituvchilar muhim o'rin tutadi. Aynan ana shu omillar negizida inson kamol topib boradi. Insonning butun umri o'zida shaxsiy qadriyatlarni takomillashtirish, o'z qadrini kamolga yetkazish, jamiyat, zamonda sodir bo'layotgan o'zgarishlar qadrini anglashga intilishdan iboratdir.

“Inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas” - Prezident

Albatta, inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta'minlashni nazarda tutamiz. **Har bir yurtdoshimiz ko'nglida yangi o'zgarishlarga intilish kuchaygan.** O'zbekiston Konstitutsiyaga kiritilishi ko'zlanayotgan o'zgarish va qo'shimchalar jarayonidagi xalqimiz muhokamalarida ham ko'rdik. Yurtga daxldorlik tuyg'usi, o'z kelajagiga befarq emasligi shu jarayonlarda faol qatnashgan yurtdoshlarimiz misolida yanada yaqqol ko'rindi. Davlatimiz rahbari raisligida shu yil 26-yanvar kuni O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasini belgilash hamda uni joriy yilda amalga oshirish masalalari muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida yurtimizda inson qadri ulug'lanishiga doir vazifalar belgilandi. Boisi, inson qadrini ulug'lash eng oliy fazilat bo'lib, yurtimizdagi islohotlarning mantiqiy davomidir. Xalqimizning qadr-qimmatini, or-nomusini himoya qilish, bosqinchi va yovuz kuchlarga qarshi kurashlarda bukilmay iroda va jasorat namunasini namoyon etib, bugungi tinch va osoyishta kunlar uchun jonini fido qilishga tayyor bo'lgan ajdodlarimizning xolidan xabar olish, ularning ezgu ishlarini davom ettirish biz uchun azaliy qadriyatdir.

Inson qadri — ulugʻ. U ertaga emas, uzoq kelajakda emas, aynan bugun oʻz hayotidan rozi va mamnun boʻlib yashashi kerak

Inson dunyoda umid bilan yashaydi. “Orzularimga yetay, shinam uy-joyim boʻlsa, yon-atrofimda qulay sharoit, bekamu koʻst muhit hukm sursa, jamiyatga, raiyatga, davlatga, oilamga, ota-onamga, doʻstu yorlarga, mahalla-koʻyga, qishlogʻimga, yurtimga foydam tegsa, murodu maqsadim ushalsa”, deydi.

Bu — ulugʻvor maqsad, ezgu amal, abadiyatga daxldor fikrat.

Inson xotira bilan tirik, qadr bilan ulugʻ. Oʻtganlarni, ularning xayrli ishlarini, jasoratini yodga olmoq, eʼzozlamoq xalqimizga xos ezgu fazilatlardan, qolaversa, bu bugun tom maʼnoda milliy qadriyatga aylandi.

Taraqqiyot strategiyasi loyihasida aholi uchun majburiy ijtimoiy kafolatlarni taʼminlash, ehtiyojmand qatlamlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish maqsadida aholining muhtoj qismini zamonaviy protez-ortopediya buyumlari va reabilitatsiya vositalari bilan taʼminlash darajasini 60 foizga yetkazish koʻzda tutilmoqda. Nogironlikni belgilashning ijtimoiy modeliga bosqichma-bosqich oʻtish koʻzda tutilgan. Mamlakatda yangi ish oʻrinlarini yaratish, aholi daromadlarini oshirish yoʻnalishida imkoniyati cheklangan va nogironligi boʻlgan shaxslarning bandligini uch baravar oshirish vazifasi ham eʼtibordan chetda qolmagan.

Inson huquqlarini himoya qilish uzluksiz davom etadigan jarayon ekanligi nuqtai nazaridan xulosa sifatida aytish mumkinki, Yangi Oʻzbekistonning Taraqqiyot strategiyasida mamlakatimiz inson qadri yuksaltirish borasida kelgusi besh yillik uchun muhim vazifa va maqsadlarini belgilab olgan. Ularni amalga oshishi uchun esa har birimiz masʼuldirmiz. Zero mamlakatimiz kelajagi va rivoji uchun hamjihatligimiz va birdamligimiz muhimdir. Xalq – davlat mavjudligining birdan-bir manbai. Oʻz fuqarolari xohish-istaklarini amalga oshirish va ularning qonuniy manfaatlarini taʼminlashga xizmat qiluvchi davlat qudratli boʻladi hamda jahon miqyosida hurmat qozonadi. Bu davrda zamonaviy shart-sharoitlarga ega taʼlim muassasalari, xususan, maktablar bunyod etishga katta eʼtibor qaratilib, qoʻshimcha 500 ming oʻquvchi oʻrni yaratilgan. Hozirgi kunda yana 1 million 200 ming oʻquvchi oʻrni yaratish boʻyicha ishlar jadal davom ettirilmoqda.

Koniyu hayvoni, agar xud nabot,

Har biri bir gavhari oliy sifot.

Borchasini garchi latif aylading,

Borchadin insonni sharif aylading.

Inson Alloh taolo yaratgan barcha mavjudotlar ichida eng aziz va mukarram xilqat. Islom nazdida barcha insonlar barobar, bir-birlariga birodardirlar. Ulardan biri boshqasidan hech narsada – na boylikda, na mansabda, na chiroyi yoki xushbichim

gavdasi bilan, na jamiyatda tutgan o`rni bilan ustun bo`la oladi. Alloh nazdida insonlarning eng ulug`i faqat Uning o`zidan qo`rqadigan taqvodorlaridir. Alloh taolo bunday marhamat qiladi:

“Ey, insonlar! Darhaqiqat, Biz sizlarni bir erkak (Odam) va bir ayol (Havvo)dan yaratdik hamda bir-birlaringiz bilan tanishishingiz uchun sizlarni(turli-tuman) xalqlar vaqabila (elat)lar qilib qo`ydik. Albatta, Alloh nazdida (eng azizu) mukarramrog`ingiz taqvodorrog`ingizdir. Albatta, Alloh biluvchi va xabardor zotdir”.

Yurtimizda yashovchi ko`plab vatandoshlarimiz yuqoridagi oyati karimalar ma`no va mazmunidan kelib chiqqan holda boshlariga kelgan har qanday musibat, qora kunlar, qatag`on yillarining mislsiz dahshatlari oldida esankirab, o`zligini aslo yo`qotishmadi, mustahkam imon, Alloh taoloning rahmatidan doimo umidvorlik ularga har vaqt hamroh bo`ldi va kelajakka katta umidlar bilan boqishdi.

“Bizning yo`limizda jiddu jahd qilganlarni, albatta, O`z yo`llarimizga hidoyat eturmiz. Albatta, Alloh ezgu ish qiluvchilar bilan birgadir!” .